



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasini mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

O‘ZBEKISTON AHOLISINI TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ECHIMLARI

Yusupova O.B., Achilova I.Q., Muhammadiyeva M.

Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash muhimligi, uning hozirgi holati, sog‘liq va ijtimoiy hayotga ta’siri, shuningdek, suv sifati va yetkazib berish tizimlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlar ko‘rib chiqilib, toza ichimlik suvi ta’minoti sohasida duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Toza ichimlik suvi, suv ta’minoti, suv sifati, sanitariya, sog‘liqni saqlash, ekologiya

Проблемы и пути решения обеспечения населения Узбекистана чистой питьевой водой

Юсупова О.Б., Ачилова И.К., Мухаммадиева М

Ургенчский государственный медицинский институт

Аннотация: В статье анализируется важность обеспечения населения чистой питьевой водой в Узбекистане, его современное состояние, влияние на здоровье и социальную жизнь, а также качество воды и эффективность систем доставки. Проводится обзор существующей литературы по данной теме, освещаются проблемы, возникающие в сфере обеспечения населения чистой питьевой водой, и меры по их устранению.

Ключевые слова: чистая питьевая вода, водоснабжение, качество воды, санитария, здоровье, экология.

Problems and solutions of providing the population of Uzbekistan with clean drinking water

Yusupova O.B., Achilova I.Q., Muhammadiyeva M.

Urgench State Medical Institute

Abstract: This article analyzes the importance of providing the population with clean drinking water in Uzbekistan, its current status, its impact on health and social life, as well as the quality of water and the efficiency of delivery systems. The existing literature on the topic is reviewed, and the problems encountered in the field of clean drinking water supply and measures taken to eliminate them are highlighted.

Keywords: Clean drinking water, water supply, water quality, sanitation, health care, ecology

Kirish. Ichimlik suvi inson hayotining eng muhim va asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Har bir insonning sog‘lom va faol hayot kechirishida toza ichimlik suvi ta’minoti muhim o‘rin tutadi. Suv nafaqat organizmning normal faoliyati uchun zarur bo‘lib, balki gigiyena, sanitariya va ovqatlanish jarayonlarining asosiy qismidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, ichimlik suvining etishmasligi va uning ifloslanishi turli kasalliklarning asosiy sababchilaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo bo‘ylab 2 milliarddan ortiq odam toza ichimlik suviga yetarlicha kira olmaydi. Bu esa ko‘plab sog‘liq muammolarining, ayniqsa suv orqali yuqadigan kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish va shaharsozlik ning kengayishi suv resurslariga bosimni oshirmoqda. Shuningdek, sanoat va qishloq xo‘jaligida ifloslanish darajasi ortishi natijasida ko‘plab suv manbalari zaharlanishi kuzatilmoqda. Bu esa aholining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, suv ta’minotining sifat va miqdor jihatdan barqarorligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor o‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston kabi mintaqalarda, ayniqsa qishloq joylarida toza ichimlik suvining yetishmovchiligi aholining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatib, suv orqali yuqadigan kasalliklar tarqalishiga sabab



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

bo‘lmoqda. Bundan tashqari, suv ta‘minotining uzluksizligi va sifatsizligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, aholining toza ichimlik suvi bilan barqaror ta‘minlanishi uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, suv manbalarini samarali boshqarish va sanitariya madaniyatini oshirish zarur. Ushbu maqolada, toza ichimlik suvi ta‘minoti sohasidagi mavjud muammolar, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek, mavjud amaliyotlar va taklif etilayotgan yechimlar tahlil qilinadi. Maqolada aholi sog‘lig‘ini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta‘minlash yo‘lida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalasi ko‘plab mahalliy va xalqarotadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Jurayev S. S., Yakubov Q. A. va Abdullayev M.R. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Namangan viloyatidagi suv ta‘minoti tizimlarining holati o‘rganilgan bo‘lib, unda suv inshootlarining eskirganligi va resurslarning cheklanganligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan [1]. Tadqiqot mualliflari mavjud infratuzilmani yangilash va modernizatsiya qilish zaruriyatini ta‘kidlaganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi farmonida esa suv resurslarini boshqarish, ularni tejash, zamonaviy texnologiyalar asosida ta‘minot tizimlarini tashkil etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2]. Bu hujjat asosida joylarda suv inshootlarini qayta qurish, yangi quvurlar tortish va aholiga ichimlik suvini yetkazib berish tizimlarini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan chop etilgan yillik hisobotda ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasi, ularni muntazam ravishda monitoring qilish va nazoratga olish muhimligi alohida ta‘kidlangan [3]. Suv sifatining pasayishi aholining sog‘lig‘iga bevosita tahdid soladi, shu bois kimyoviy va mikrobiologik ko‘rsatkichlarni kuzatish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Shuningdek, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va “O‘zsuvta‘minot” AJning so‘nggi yillardagi faoliyati haqida tahlillar ham mavjud bo‘lib, unda respublika miqyosida minglab kilometr ichimlik suvi quvurlari yangilanganligi, suv inshootlari qurilganligi va aholining suv bilan ta‘minlanganlik darajasi ortib borayotganligi qayd etilgan [4], [5]. Bu holat O‘zbekistonda suv ta‘minoti bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasini ko‘rsatadi.

Tahlil va Natijalar. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil ichida ichimlik suvi bilan ta‘minlash sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu davrda davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan aholi salomatligini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va suv resurslarini oqilona boshqarish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bunda, avvalo, ichimlik suvi infratuzilmasini rivojlantirish, suv sifati monitoringini kuchaytirish, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va yangi suv inshootlarini qurish ishlari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. 2020–2025 yillarda mamlakat miqyosida minglab kilometr ichimlik suvi tarmoqlari tortildi, minglab suv inshootlari barpo etildi. Natijada, aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2025-yil yanvar oyiga kelib, O‘zbekiston aholisining 80,9 foizi sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlangan. Bu ko‘rsatkich yillar davomida muntazam ortib borayotgani mamlakatdagi ichimlik suvi ta‘minoti sohasidagi islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududlar kesimida suv ta‘minoti darajasida farqlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida suv ta‘minotining sifati va uzluksizligi bo‘yicha qator muammolar mavjudligi qayd etilmoqda. Bu hududlarda suv tarmoqlarining eskirganligi, yangi suv inshootlari yetishmasligi va suv sifatini doimiy nazorat qilish tizimining to‘liq joriy etilmaganligi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiladi.

Ichimlik suvi sifati masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda suv manbalarining kimyoviy va mikrobiologik holatini muntazam monitoring qilish tizimi joriy etilmoqda. 2025 yilda ichimlik suvi sifatini nazorat qilish bo‘yicha markaziy laboratoriyalar tarmog‘i tashkil etilishi



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

rejalashtirilmoqda. Ushbu laboratoriyalar suv manbalarining ifloslanish darajasini aniqlash, suv sifatini tahlil qilish va sanitariya-epidemiologik ko‘rsatkichlarni muntazam ravishda nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholiga toza va xavfsiz ichimlik suvini yetkazib berishni ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda sanitariya-epidemiologik xizmatlarning imkoniyatlari yetarli emasligi, laboratoriyalar texnik bazasining eskirganligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan investitsiyalar jalb qilinmoqda va yangi texnologiyalar joriy etilmoqda.

Suv ta‘minoti tizimlarining samaradorligini oshirish maqsadida, 2024 yilda 147 kilometr ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari qurildi. Ushbu ishlar natijasida 7581 xonadon ichimlik suvi bilan ta‘minlandi, 10 200 nafar aholi birinchi marta sifatli ichimlik suviga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar ayniqsa, qishloq joylarida aholi hayot sifatining yaxshilanishi va sanitariya-epidemiologik holatning barqarorligi uchun muhim hisoblanadi. Ayni paytda, qishloq joylarida, shuningdek, suv yetkazib berish tizimlarining eskirganligi sababli, suv yo‘qotishlarining yuqori darajada bo‘lishi hamon dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa suv resurslarining samarali foydalanilmasligi va ichimlik suvi sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, suv ta‘minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, suv yo‘qotishlarni kamaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Suv manbalarining ifloslanishi muammosi ayniqsa, sanoat korxonalari yaqinidagi hududlarda, shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatiladigan agrotexnika vositalari oqib tushadigan hududlarda dolzarbdır. Daryo va ko‘llarning suv sifati doimiy ravishda tahlil qilinadi, ammo ba‘zan kimyoviy moddalar va mikroorganizmlar mavjudligi suv sifatini pasaytiradi. Bu holat aholining sog‘lig‘iga tahdid soladi, ayniqsa bolalar, keksa yoshdagi insonlar va immuniteti zaif odamlar uchun xavfli hisoblanadi. Shu bois, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirish ustida ishlar olib borilmoqda. Ichimlik suvi bilan ta‘minlash tizimlarini rivojlantirishda jamoatchilikning ham ishtirokini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Aholining suvdan oqilona foydalanishi, suvni tejash, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilishga oid targ‘ibot ishlari keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Maktablarda, mahallalarda va ommaviy axborot vositalarida suvni tejash va toza ichimlik suvini saqlash bo‘yicha ta‘lim va targ‘ibot tadbirlari olib borilmoqda. Bu esa aholining suv resurslariga bo‘lgan munosabatini ijobiy o‘zgartirishga yordam beradi.

Aholi punktlarida suv ta‘minotining uzluksizligini ta‘minlash uchun suv tashish texnikalari ham qo‘llanilmoqda. Maxsus suv tashish avtomobillari yordamida markazlashgan ichimlik suvi tizimi yo‘q yoki yetarli bo‘lmagan hududlarga suv yetkazib beriladi. Bu usul ayniqsa, qishloq joylarida va tog‘li hududlarda keng qo‘llanilmoqda. Biroq, bu vaqtinchalik yechim bo‘lib, asosiy vazifa markazlashgan suv ta‘minot tizimini kengaytirish va yaxshilashdan iborat.

Kelgusi besh yil uchun O‘zbekiston hukumati ichimlik suvi ta‘minoti darajasini 90 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda. Bu maqsadga erishish uchun yangi suv inshootlari quriladi, mavjud tarmoqlar rekonstruksiya qilinadi va suv sifatini nazorat qilish tizimi yanada kuchaytiriladi. Suv ta‘minoti infratuzilmasining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi va raqamlashtirilishi rejalashtirilmoqda, bu esa suv ta‘minotidagi yo‘qotishlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, suv resurslarini muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Ichimlik suvi bilan ta‘minlash sohasidagi ushbu keng qamrovli chora-tadbirlar aholi hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga, sanitariya-epidemiologik holatni mustahkamlashga va aholining sog‘lig‘ini himoya qilishga xizmat qiladi. Biroq, bu sohada hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar hamon mavjud. Ular orasida ayrim hududlarda suv ta‘minoti tizimlarining eskirganligi, suv sifatining barqaror nazorat qilinmasligi, suv manbalarining ifloslanish xavfi va suv yo‘qotishlarning yuqoriligi bor. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat organlari, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Yuqorida ta’kidlanganlar asosida, ichimlik suvi ta’minoti sohasida jadal rivojlanish va sifatli xizmat ko’rsatish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar samarali sarflanishi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilinishi, mutaxassislarning malakasini oshirish, aholi bilan doimiy muloqot olib borish kabi omillar ustuvor ahamiyatga ega. Suv resurslarining barqaror boshqarilishi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va suv sifati monitoringini kuchaytirish orqali O‘zbekiston kelajakda ichimlik suvi ta’minoti sohasida yuzaga keladigan barcha muammolarni bartaraf etib, aholining toza va xavfsiz ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondira oladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil ichida ichimlik suvi ta’minoti sohasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi. Aholining toza va xavfsiz ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, infratuzilmani yangilash, suv manbalarini muhofaza qilish va suv sifatini doimiy monitoring qilish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, minglab kilometr ichimlik suvi quvurlarining tortilishi, yuzlab suv inshootlarining barpo etilishi va millionlab aholining suv ta’minoti bilan qamrab olinishi bu boradagi ishlarning samaradorligidan dalolat beradi. Biroq, hududiy tengsizlik, eskirgan infratuzilma, suv yo‘qotishlarining yuqoriligi, suv sifati monitoringining ayrim hududlarda yetarli emasligi, suv manbalarining ifloslanish xavfi kabi muammolar hanzugacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq joylari va chekka hududlardagi aholining barqaror ichimlik suvi ta’minotiga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq hal etilmagan. Shu sababli, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilgan holda, ularni barqaror, ilmiy asoslangan va texnologik yondashuvlar orqali bartaraf etish zarur. Kelgusi yillarda ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 90 foizdan ortiq ko‘rsatkichga yetkazish, suv sifatini nazorat qilish laboratoriyalarini tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va aholining suv madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish zarur. Suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy qilish orqali mavjud tizimlarning samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jurayev S.S., Yakubov Q.A., Abdullayev M.R. (2023). *Ichimlik suvi ta’minoti tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari*. ResearchEdu. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4622>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2019). *Ichimlik suvi ta’minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. <https://lex.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (2020). *Ichimlik suvi manbalarining monitoringi bo‘yicha yillik hisobot*. <https://uza.uz>
4. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (2020). *Ichimlik suvi infratuzilmasi rivoji haqida ma’lumot*. <https://xabar.uz>
5. “O‘zsuvta’minot” AJ (2025). *2030-yilgacha ichimlik suvi ta’minotini oshirish rejalari*. <https://uza.uz>